O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
Sharof Rashidov nomidagi
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
Geografiya va ekologiya fakulteti

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”_____

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 60530200- SGI606
2024 yil “09” 2[illegible]

SHAHARLAR GEOGRAFIYASI VA GEOURBANISTIKA ASOSLARI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530 000- Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530200 – Geografiya

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
SG1606	2026-2027	6	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy fan	O‘zbek		5

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari	72	108	180

Fanning maqsadi (FM)

FM1

I. FANNING MAZMUNI

Fanni o‘qitishdan maqsad – Shaharlar geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog‘i bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarining geografiya yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Fan shaharlar to‘ri va tizimlari rivojlanishining tarixiy-geografik, sotsial, iqtisodiy-geografik, shaharsozlik jihatlarini o‘rganishga, urbanizatsiyaning murakkab, zamonaviy global xarakterini ochib berishga, shaharlar va ularning tizimlarining rivojlanish strategiyasi geografik jihatlarining mazmuni va ahamiyatini, shaharlarni joylashtirish, rivojlantirish, loyihalash va boshqarish asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Mazkur fanning o‘qitilishidan maqsad geografiya mutaxassisligi talabalariga shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuv qonuniyatlari hamda xususiyatlariga oid nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, mazkur fan geografiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat buyurtmachi hisoblanuvchi umumta`lim muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlaridan darslarni o`tishda shu soha bo‘yicha to‘la qonli bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga o‘z mazmuni bilan xizmat qiladi.

Fanning asosiy vazifasi - “shahar”tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish, fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari, asosiy tamoyillari, qonuniyatlarini o‘rganish, shaharlarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi o‘ziga xos o‘rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilim berish, asosiy tushuncha, atama, terminlarning ma’nosini bilish, turli mintaqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berishni o‘rganishdan iborat.

	Fan mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
	Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)
M1	**Kirish. Shaharlar geografiyasi fanining mazmuni, obyekti, predmeti va vazifalari.** Shaharlar geografiyasining shakllanish tarixi. Shaharlar geografiyasi – iqtisodiy - ijtimoiy geografiya fanining bir tarmog`i sifatida. Fanning ob‘‘ekti va predmeti Shaharlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rni va o`ziga xos xususiyatlari
M2	**Shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganish.** Shaharlarni o‘rganishning iqtisodiy-geografik jihatlari. Shaharlarni o‘rganishning umumiy tartibi
M3	**Shaharlarning tarixiy shakllanishi va “shahar” haqida tushuncha** Shaharlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari (tarixiy - geografik tahlil). Shahar haqida tushuncha.
M4	**Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar. Shaharlarning geografik o‘rni. Shaharlarning genetik tiplari** Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaharlarning shakllanishida geografik o‘rinning roli. Shaharlarning genetik tipologiyasi.
M5	**Shaharlar tasnifi, tipologiyasi va funksional tiplari** Shaharlarni tiplarga ajratish. Shaharlar tasnifi. Sipfa-Styuart qoidasi. Shaharlarning funksiyalari va uni aniqlash mezonlari. O‘zbekiston shaharlarining funksional tiplari. Poytaxt shaharlar. Global shaharlar.
M6	**Shaharlarning hududiy tizimlari. Shahar aglomeratsiyasilari va megolopolislar** Shaharlar hududiy tizimlarining vujudga kelishi, turlari. Shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Urbanistik zona va areallar.
M7	**Rayon planirovkasi va shaharsozlik asoslari.** Rayon planirovkasi haqida tushuncha. Shaharlar Bosh rejasi. Shaharsozlik masalalari.
M8	**Yevropa shaharlari geografiyasi.** Shakllanish tarixi, rivojlanishi, geourbanistika, tiplari, funksiyalari, geografiyasi, muammolari
M9	**Amerika shaharlari geografiyasi** Shakllanish tarixi, rivojlanishi, geourbanistika, tiplari, funksiyalari, geografiyasi, muammolari
M10	**O‘rta Osiyo shaharlari geografiyasi** Shakllanish tarixi, rivojlanishi, geourbanistika, tiplari, funksiyalari, geografiyasi, muammolari
M11	**O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va uning yangi bosqichi**

	O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining tarixiy bosqichlari. O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari
M12	**O‘zbekiston shaharlari tarkibi.** O‘zbekistonning urbanistik tarkibi. O‘zbekiston shaharlarining hududiy tarkibi
M13	**Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari** Viloyat shaharlarining shakllanish xususiyatlari. Viloyat shaharlari tasnifi. Viloyat shaharlarining funksiyalari
M14	**Farg‘ona iqtisodiy rayoni shaharlari** Farg‘ona mintaqasi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘rni. Andijon viloyati shaharlari tarkibi va tavsifi. Farg‘ona viloyati shaharlari ierarxiyasi. Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi. Namangan viloyati shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi
M15	**Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari** Mirzacho‘l mintaqasi shaharlar geografiyasi. Jizzax viloyati shaharlarining genetik tasnifi. Sirdaryo viloyati shaharlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar
M16	**Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlari** Zarafshon mintaqasi shaharlari to‘ri va tarkibi. Navoiy viloyati shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi. Buxoro viloyati shaharlar geografiyasi. Samarqand viloyati shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi
M17	**Janubiy iqtisodiy rayoni shaharlari** Janubiy iqtisodiy rayon shaharlariga umumiy tavsif. Surxondaryo viloyati shaharlarining vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari. Termiz shahri: iqtisodiy, madaniy, ma‘‘muriy, geostrategik ahamiyati. Qashqadaryo viloyati shaharlarining klassifikatsiyasi
M18	**Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni shaharlari** Quyi Amudaryo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘rni. Xorazm viloyati shaharlari klassifikatsiyasi va funksional tiplari. Qoraqalpog‘iston Respublikasi shaharlari zichligi va joylashuvi. Quyi Amudaryo ekologik vaziyatining shaharlar rivojlanishiga ta’siri.
III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Shaharlarning geografik o‘rniga iqtisodiy geografik baxo berish
A2	Jahon shaharlarining genetik tipologiyasini tuzish va izohlash
A3	Shaharlar shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni aniqlash
A4	O‘zbekiston shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash
A5	O‘zbekiston shaharlari piramidasini tuzish
A6	O‘zbekiston va viloyatlar shaharlarini funksiyalariga ko‘ra guruhlash
A7	O‘zbekiston shaharlarini funksional tiplarga ajratish
A8	Jahon poytaxt shaharlarini o‘rganish va xaritadan aniqlash
A9	Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va katta-kichikligiga ko‘ra guruhlashtirish
A10	Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari
A11	Jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash va tiplarga ajratish
A12	“Siz kelajak shaharlarini qanday tasavvur qilasiz?” mavzusida “optimal” shahar sxemasini chizish
A13	O‘zbekiston yirik va katta shaharlari aholisining o‘sish dinamikasini chizmada tasvirlash va tushuntirish
A14	O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari shaharlari
A15	O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shaharlar zichligini aniqlash
A16	Samarqand shaharlari geografiyasi
A17	Samarqand aglomerasiyasi va Kattaqo‘rg‘on lokal tizimining rivojlanishi.
A18	Shaharlarning global muammolari.

IV. **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

“Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

Mustaqil ta’lim mavzulari (MT)	
MT1	“Siz kelajak shaharlarini qanday tasavvur qilasiz?” mavzusida “optimal” shahar sxemasini chizish
MT2	O‘zbekiston yirik va katta shaharlari aholisining o‘sish dinamikasini chizmada tasvirlash va tushuntirish
MT3	O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari shaharlari
MT4	O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shaharlar zichligini aniqlash
MT5	O‘zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini yillar bo‘yicha o‘zgarishini chizmada tasvirlash va tahlil qilish

MT6	Jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash va tiplarga ajratish
MT7	Shaharlarning geografik o‘rniga iqtisodiy geografik baxo berish
MT8	Jahon shaharlarining genetik tipologiyasini tuzish va izohlash
MT9	Shaharlar shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni aniqlash
MT10	O‘zbekiston shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash
MT11	O‘zbekiston shaharlari piramidasini tuzish
MT12	“Siz kelajak shaharlarini qanday tasavvur qilasiz?” mavzusida “optimal” shahar sxemasini chizish

“Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, shaharlar geografiyasi tushunchalarini ta’riflash, ularning ilk ko‘rinishlari, jahon shaharsozlik tajribasining ilg‘or namunalari bilan o‘rtoqlashish, fanning maqsadlarini aniqlab olish; shaharlarning tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish, turistik industriya va unga bo‘lgan talablarni o‘rganish; shaharlar infratuzilmasi haqida ma’lumot olish, turizm turlari va uning asosiy ko‘rinishlarini belgilab chiqish, turistik resurslarni tushuntirib berish. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Fan bo‘yicha asosiy tushuncha, atama, termin, g‘oya, usul, manba, nazariya, qonuniyatlarini bilish, shahar aholi manzilgohlarini shakllanishi, joylashishi, rivojlanishining geografik jihatlariga oid nazariy bilimlarni bilish, tushuntira olish, amaliyotda qo‘llay olishdir Fanga tegishli bo‘lgan statistik ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish malakalariga ega bo‘lishi lozim
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o‘z-o‘zini nazorat.* • “Aqliy hujum”, • “Muammo”; • Krossvord • Annogrammalar • Ko‘chma dars mashg‘ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6.ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Soliev A.S., Tashtaeva S.K., Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2019.
2. Kadirov M.A. Shaharlar geografiyasi. T., 2019.
3. Кадиров М.А. География горадов. Т., 2019.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Ата-Мирзаев О. Б., Генцхке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизаци Узбекистана. – Т.: Университет, 2002. – 125 с.
2. Ахмедов Е.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.- Т., 2004.
3. Город в контексте глобалних процессов.-М6, МГУ, 2011.
4 Персик Е.Н. География городов.(Геоурбанистика). -М.1991.
5. Солиев А.С., География городов республик Средней Азии, Част-1.- Т., 1980, Част-2.- Т., 1980.
6.Солиев А.С. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. -Т.: Фан, 1991

AXBOROT MANBALARI:

www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari portali
www.ziyonet.uz -O‘zbekiston Respublikasi ta`lim portali

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: **Kadirov M.A.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasi professori, g.f.n.,

9.	**Taqrizchilar:** **L.Z.Ibragimov** – SamDU, "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.d. (DSc) (tel: (97)928-68-42 **Samyayev A.K.** –Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedra katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD) A.Samyayev (tel:(93)3407229).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Xaydarov S.A.

Kafedra mudiri: **M.R.Usmanov**

Fakultet dekani: **S.B.Abbasov**

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun tuzilgan "Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari" fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur dasturni tuzishda 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talabi asos qilib olingan. **"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari"** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari"** fani bo'yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Dasturni tuzishda geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari" o'quv dasturi OTM uchun 3-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

"Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirov tomonidan tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi
katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD) **A.Samyayev**

A. Samyayev ning
imzosini tasdiqlayman
Kadrlar bo'limi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun tuzilgan "Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturni 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan bo`lib, muallif shu yo`nalish bo`yicha malaka talabi asos qilib olingan. **"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari"** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta`limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari"** fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan.

"Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari" o'quv dasturi OTM uchun 3-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi professori, g.f.n. M.Kadirov tomonidan tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga to`la mos kelishini inobatga olib undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi
professori, g.f.d. (DSc) L.Ibragimov